Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · "Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317751

II-Sho'ba

MILLIY IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNI TA'MINLASH SHAROITIDA IQTISODIYOT NAZARIYASI FANINING ROLINI OSHIRISH MASALASI

Khajimuratov Abdukakhkhor Abdumutalovich,
Iqtisodiyot fanlari doktori,
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti
Tel:/teleg. +998 99 974 15 58. khajimuratov58@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada mamlakatimiz va uning hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi barqarorligini ta'minlashga zamin bo'lgan zamonaviy kadrlar tayyorlash sistemasida iqtisodiyot nazariyasi fanini keng miqyosda o'qitilishining zaruriyati haqidagi dolzarb muammolar va ularning echimlari bayon qilingan.*

Kalit so'zlari*: iqtisodiyot, iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy siyosat, malakali kadrlar, Yangi O'zbekiston, pedagogika.*

Abstract*: The article describes the current problems and their solutions regarding the need for widespread teaching of economic theory in the modern personnel training system, which is the basis for ensuring the stability of the socio-economic development of our country and its regions.*

Keywords: *economy, economic theory, economic policy, qualified personnel, New Uzbekistan, pedagogy.*

Аннотация*: В статье изложены современные проблемы и пути их решения, касающиеся необходимости широкого преподавания экономической теории в современной системе подготовки кадров, что является основой обеспечения устойчивого социально-экономического развития нашей страны и ее регионов.*

Ключевые слова: *экономика, экономическая теория, экономическая политика, квалифицированные кадры, Новый Узбекистан, педагогика.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini ko'tarish, oliy ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish maqsadida, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini ***ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantirish*** ko'zda tutilgan [1].

Published: 24.05.2025

Cite this article: Khajimuratov Abdukakhkhor Abdumutalovich (2025). Milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va barqaror rivojlantirishni ta'minlash sharoitida iqtisodiyot nazariyasi fanining rolini oshirish masalasi. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317751

© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Shunday ekan, iqtisodiy bilimlar bugungi kunda barcha kadrlar uchun zarurligini ta’kidlab o’tish o’rinli. Shuning uchun, O’zbekiston oliy ta’lim tizimida, iqtisodiy bilimlarga ega bo’lgan, yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlashdan kelib chiquvchi maqsadi – shu tizimda iqtisodiyot nazariyasi fanini o’qitilishini dolzarb muammo ekanligidan dalolat bermoqda. Afsuski, mamlakatimizda keying yillarda bu masalaga e’tibor kamayib ketdi. Vaholanki, Yangi O’zbekistonning keyingi taraqqiyoti uchun zarur bo’ladigan inson kapitalini faollashtirish muammosining echimini topish masalasini ham iqtisodiy bilimlarsiy tasavvur qilish mumkin emas, albatta. Ushbu dolzarb mavzuga bunday to’g’ri yondashuv, shubxasiz jamiyatimiz a’zolari oldiga qo’yilgan Uchinch renessans poydevorini yaratish maqsadlariga xam mos keladi.

Tadqiqotning asosiy ob’ekti - “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining o‘zi va unga bog’liq Yangi O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlantirilishi jarayonida oliy ta’limdagi o’zgarishlar tendentsiyasi tanlandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada iqtisodiyot nazariyasi fanini o’rdanishni faollashtirish va uning ishtirokchilarini aniqlashga tanqidiy nuqtai-nazardan qarash, iqtisodiy, mantiqiy tamoyillari, deterministic yondashuv va diskurs tahlil usulida ko’rib chiqildi. Shuningdek, ahborot manbaalarini o’rganishda va tadqiqotlarni amalga oshirishda tarixiy va mantiqiy usullar birligi, ilmiy abstraktsiyalash, tizimli tahlil usullaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili: Ma’lumki, bo’lajak mutaxassislarga fundamental iqtisodiy bilimlarni “Iqtisodiyot nazariyasi” fani o’rgatadi. “Iqtisodiyot nazariyasi” fanining g’oyaviy-tarbiyaviy vazifasi yordamida talabalar, mutaxassislar iqtisodiyot bilimini o’rganuvchilarning (hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurini, shu jumladan bozor) dunyoqarashini shakllantiradi [3.35].

Ilmiy adabiyotlarda, hozirgi vaqtda yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun, ularga iqtisodiy bilimlarni o’qitilishining zaruriyati masalasi bo’yicha ilmiy qarashlarni tashqi manbaalarda uchratish mumkin: [4]; [5]; [6].

O’zbekistonda bu fanni o’qitishni dolzarbligiga jiddiy yondoshuvni uchratish mumkin[7].

Asosiy qism. Ma’lumki, bozor iqtisodiyotining talablari – uning xamma ishtirokchilarini xozirgi davrda, iqtisodiy bilimlarni puxta egallashini taqozo etadi. Binobarin, mamlakatimiz hududlari bo’ylab ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta’minlash muammosining echimlarini topish masalasi xam bunga bog’liq.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish amaliyoti ko’rsatmoqdaki, bo’lajak kadrlarimiz ham keyingi o’z faoliyatlarida bozor munosabatlarini chetlab o’tishlari

mumkin emas. Vaxolanki, barcha yo’nalishlar bo’ylab tayyorlanayorgan kadrlar bozor iqtisodiyoti munosabatlari oqimiga tushishi muqarrar. Shunday ekan, har bir zamonaviy mutaxassis bozor sharoitidagi iqtisodiy munosabatlarni, jumladan bozor munosabarlari elementlarini, iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar va qonunlarning mohiyatini, bular orqali turli ko’rinishdagi daromadlarning shakllanishi manbaalarini, aniqrig’i resurslardan oqilona foydalanish, qolaversa foydani sakllantirishda raqobat kurashini amal qilishi shartlarini bilishi lozimdir.

Xa, jamiyat a’zolari o’z hayotlarining bunday turli vaziyatlarida ma'lum bir iqtisodiy jarayon va xodisalarni o’rganish, to’liq anglab olish uchun uning ishtirokchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllanishi, ya’ni ularga iqtisodiy tafakkur kerak bo’ladi. Binobarin, iqtisodiy bilimlar bugungi kundagi barcha kadrlar uchun zarurligi xech kimda shubxa tug’dirmaydi. Sir emas, kishilar bunday tafakkurga iqtisodiyot nazariyasi fanini o’rganish orqali erishadilar.

Iqtisodiyot nazariyasi fanining predmeti – iqtisodiy resurslar cheklangan sharoitda jamiyatning to’xtovsiz oshib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadida hayotiy ne’matlarni (moddiy ne’matlar va xizmatlarni) ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste’mol qilish jarayonida sodir bo’ladigan iqtisodiy munosabatlarni, ijtimoiy xo’jalikni samarali yuritish qonun-qoidalarini o’rganishdan iborat.

Faqat shu iqtisodiyot nazariyasi fanigina, iqtisodiy rivojlanish mexanizmini vizual ravishda o'rganib, vujudga kelgan muammolarni hal qilishga qodirdir. Buni yaqqolroq tasavvur qilish uchun iqtisodiyot nazariyasining bajaradigan vazifalarini eslab o’tamiz. Iqtisodiyot nazariyasining umumiy taraqqiyotdagi zaruriyatini, uning quyidagi bajaradigan bazifalari orqali to’liq bilish lozim boladi:

1) Bilish vazifasi – bu degani, har qanday fan kabi iqtisodiyot nazariyasi ham fundamental ahamiyatga ega, y’ani jamiyatda kishilar o’rtasida bo’layotgan hodisa va voqealardagi iqtisodiy munosabatlarni tadqiq etadi, shu tufayli ayni paytda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini to’laqonli ravishda (yutuq va kamchiliklarni) fahmlab olish mumkin, bu o’z navbatida iqtisodiy tafakkur darajasini oshirdi;

2) amaliy vazifasining maqsadi – cheklangan resurslardan unumli foydalanib iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash va shunga asoslanib o’sib boruvchi turli ehtiyojlarni qondira borishdan iborat, y’ani yangi imkoniyatlarni topishdan iborat;

3) uslubiy vazifasi – iqtisodiyot nazariyasi fanining o’zi, bilish uslublari, tahlili va uning tamoyillari, olingan hulosalar, o’rganilayotgan iqtisodiy qonunlar va kategoriyalar boshqa ijtimoiy - iqtisodiy tarmoq, mahsus kasbiy fanlari uchun uslubiy (fundamental) asos bo’lib hizmat qiladi, bular:

- Iqtisodiy tarix fanlari (iqtisodiy ta'limotlar tarixi, xalq xo'jaligi tarixi, mamlakatlar iqtisodiyoti tarixi va boshqalar);
- Tarmoqli iqtisodiy fanlar (sanoat iqtisodiyoti, qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti, qurilish iqtisodiyoti, turizm, mintaqa iqtisodiyoti va b.);
- Maxsus fanlar (moliya, statistika, buxgalteriya, marketing, menejment, biznes asoslari, bank ishi, iqtisodiy geografiya va b.);

4) g’oyaviy-tarbiyaviy vazifasi – bu vazifa yordamida talabalar, mutaxassislar iqtisodiyot ilmini o’rganuvchilarning (hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurini, sh.j.bozordagi) dunyoqarashini shakllantiradi. Binobarin, iqtisodiyot nazariyasi odamlarning iqtisodiy xatti-harakatlarini o'rganadi. Shuning uchun bu fan gumanitar (ijtimoiy) fan hisoblanadi.

Taniqli amerika iqtisodchisi (Nobel mukofoti lauriyati) Ludwig von Mises ta’kidlaganidek: “Barcha aqlli insonlar iqtisodiyot nazariyasi ta’limoti bilan tanish bo’lishlari lozim. Iqtisodiyot nazariyasi jamiyatning fundamental muammolari bilan shug’ullanadi; u har bir kishiga va hammamizga ta’luqlidir. U xar bir fuqaroning asosiy va xaqiqiy ishidir” [4].

“Iqtisodiyot nazariyasi” fanining maqsadi - iqtisodiy muammolar va ularni hal qilish yo'llarini, iqtisodiy nazariy asos sifatida har qanday davlatning siyosatini shakllantirishdir. Vaholanki, “Iqtisodiy nazariya”siz iqtisodiy siyosatning bo’lishi aqlga sig’maydi. Demak, har qanday davlatning iqtisodiy siyosati, jamiyatda ob'ektiv qonuniyatlarni zamonaviy sharoitda o’rganadigan iqtisodiyotning nazariyasiga asoslanadi.

Shunday ekan, aynan hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha soxalar faoliyatini iqtisodiy bilimlarsiz tasavvur qilish mumkinmi ? Yo’q, albatta.

Tarixga nazar soladigan bo’lsak, mamlakatimizda mustaqillik yillaridan boshlab noiqtisodiy oliy o‘quv yurtlarida, shuningdek pedagogika, tibbiyot kadrlarini tayyorlashda, iqtisodiy nazariyani o‘qitishni to‘xtatilganligi hech kimga sir emas. Binobarin, mana mamlakatimiz mustaqilligining o’ttiz to’rt yil vaqt mobaynida, bozor iqtisodiyotining “o‘zbek modeli” qurilishi jarayoniga kadrlar tayyorlanmoqda. Lekin bu o’tgan vaqt mobaynida, mamlakatimiz noiqtisodiy oliy o’quv yurtlari bo’ylab tayyorlangan kadrlarimizga iqtisodiy bilim berilmadi. Chunki, iqtisodiyot nazariyasi fani o’quv rejalarda yo’q. Bu yo’l qo’yilgan katta xatolik, mamlakatimizda qanchadan-qancha yo’qotishlarga sabab bo’ldi-ku axir?

Nega? Balki, “mamlakatni boshqaruvchilari” bu talabalarga iqtisodiy nazariyani o‘qitish uchun soatlab vaqt sarflashga moliyaviy masalada “ochko‘zlik” qilgandirlar, yoki “yaxshi” kadrlar tayyorlashda iqtisodiy nazariyaning ahamiyatini chalkashtirib

yuborishgandir? Nahotki, iqtisodiy bilimlarga ehtiyoj “yo’q” darajada bo’lmagan bo’lsa?

Albatta afsus, o’ylab ko’ring, bugungi ta’limda iqtisodiy bilim bermasdan qanday qilib turli profilli yangi mutaxassisni bozor talablariga mos tayyorlash mumkin? Zero, bozor munosabatlari (xususiy mulk) mamlakatimiz iqtisodiyot hayotining barcha sohalarida, xususan, ishlab chiqarish va xizmatlarda, shu jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalarida keng tarqaldi-ku, axir! Aqlga sig’maydi, bugungi mutaxassis iqtisodiy bilimlarsiz bozor iqtisodiyoti sharoitida qanday faoliyat ko’rsatishi mumkin? Ularni bozor iqtisodiyotining zamonaviy kadrlari deb hisoblay olamizmi?

Ma’lum bo‘lishicha, bu muammoning bosh sababi shundan iboratki, bozorga o‘tishni boshlanishi sharoitida “boshqaruvchilarimiz” bozor iqtisodiyotini shakllanishi va rivojlanishi jarayonida iqtisodiy nazariyaning o‘rni, roli va ahamiyatiga yetarlicha baho bermaganliklarini bildiradi. Shu joyda eslatib o’tish o’rinli, mamlakatimiz tarixiga nazar solsak, hatto mamlakatimiz o’tmishi sotsalizm davrida iqtisodiy ta'lim – “siyosiy iqtisod” fani barcha mutaxassisliklar bo’yicha kadrlar tayyorlashda majburiy fan sifatida o’qitilgan. Bu o’tmishdagi tarix ahamiyatini “hech kim” e’tiborga olmagan ko’rinadi.

Shunga mos holda, keyingi yillarda mamlakatimizda Rossiyaning etakchi oliy ta’lim muassasalari bilan tashkil etilgan pedagogika, tibbiyot va boshqa kadrlarini tayyorlashning qo’shma dasturi bo’yicha: iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiyot, moliyaviy savodhonlik, menejment, marketing fanlari talabalarga (rus tilida) o’qitilib borilmoqda. Taajub, nega xanuzgacha bu fanlarni o’qitish bizning kadrlar tayyorlash milliy dasturimizgadi noiqtisodiy yo’nalishlar bo’yicha yo’lga qo’shilmagan? Bu masalada Rossiya va boshqa mamlakatlar tajribasi qo’llanilmadi? Axir biz bu sohada orqada qolib, oqsayapmiz-ku? Iqtisodiy bilimlarsiz “zamonaviy” kadrlar tayyorlanmoqda, yoki bozor iqtisodiyotini asosiy bilimlarsiz quramizmi ? Xa, bu xolat shubxasiz mantiqqa zid.

Muhokama. Zero, biz O’zbekistonda bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo‘naltirilgan “o’zbek modeli”ni qurayotgan ekanmiz, bunga binoan bozor iqtisodiyotining talabi – bo’lajak kadrlarimiz iqtisodiy bilimlarni puxta egallashlari lozim. Buning uchun tayyorlanayotgan barcha mutaxassisliklar bo’yicha kadrlar tayyorlashning o’quv rejasiga iqtisodiyot nazariyasi fanini kiritilishi lozim va iqtisodiy ta’limni keng yo’lga qo’yilishi zarur bo’ladi. Buni, hozirgi davr taqozosidir, deb hisoblaymiz.

Bu masalada tibbiyot sohasini olaylik. Hozirgi kunda tibbiyot sohasi, byudjet cheklovlari, texnologiya va dori vositalarining narxi, tibbiyot muassasasini tashkil etish va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq bir qator muammolarga duch kelmoqda.

Ushbu muhitda muvaffaqiyatli ishlash uchun sog'liqni saqlash xodimlari zamonaviy tarzda iqtisodiy fikrlay olishlari, ya’ni sog'liqni saqlash soxasi iqtisodiyoti qonuniyatlarini bilishlari darkor.

Iqtisodiy jarayonlarni faxmlay bilish - sog'liqni saqlash mutaxassislariga resurslardan foydalanishni optimallashtirish va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish uchun asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Iqtisodiy bilimlar xarajatlar va foydalarni tahlil qilish va kerakli natijaga erishishning eng yaxshi usullarini tanlash imkonini beradi. Qolaversa, sohaga innovatsilarni jalb qilish jarayoni etarlicha iqtisodiy tafakkutni taqozo etadi.

Shular bilan birgalikda, tibbiyot bozoridagi raqobat tibbiyot xodimlarining iqtisodiy bilimlariga bo'lgan talabini ham belgilaydi. “Muvaffaqiyatga erishish uchun shifokorlar va hamshiralar o'z amaliyotlarini qanday rivojlantirish va optimallashtirishni, ko'proq bemorlarni qanday jalb qilishni va ularni saqlab qolishni bilishlari kerak. Iqtisodiy bilimlar marketing, moliyaviy rejalashtirish va biznesni boshqarish tamoyillarini tushunishga yordam beradi, bu sizga o'z tibbiy amaliyotingizni rivojlantirish yoki mehnat bozorida ko'proq talab va muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi” [5].

Binobarin, vrachning amaliy faoliyatida talabga ega bo‘lgan iqtisodiy bilimlar universitetda o‘qish jarayonida iqtisodiyot (iqtisodiyot nazariyasi), sog‘liqni saqlash iqtisodiyoti va boshqalar kabi fanlarni o‘zlashtirish jarayonida shakllanadi. Professional haqida shifokor faoliyati, bu esa yuqori darajadagi mas'uliyatni o'z ichiga oladi, keyin iqtisodiy tafakkurning rivojlanishi hisoblanadi uning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini, kasbiy kompetentsiyalarini to'liq shakllantirishning zarur sharti hisoblanadi.

Xullas, qisqacha qilib aytganda, har qanday inson kelajakda qaysi kasbni tanlamasin, har doim bilish kerak: pul nima, narx nimadan iborat va pulni qadrsizlanishdan qanday himoya qilish kerak. Soliq, foyda, ulush, bank foizlari, yalpi ichki mahsulot, ijara, valyuta, bojxona kabi atamalarni esa hamma bilishi kerak.

Bu fanning iqtisodga ta'sir qilish dastaklarini tushunish uchun avvalo fanning o'zining mohiyatini tushunish kerak. Iqtisodiyot nazariyasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi hayotiy muhim tovarlar, tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni o'rganadi va bu fan iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilib, bir qator fundamental savollarga javob berishi kerak: - Iqtisodiy tizim nima? Bu qanday ishlaydi? Uning tarkibiy elementlari, maqsadlari va harakat shakllari qanday? - Iqtisodiy tizim qanday faoliyat ko'rsatadi, uning elementlari faoliyat ko'rsatish

jarayonida o'zaro qanday bog'langan? - Iqtisodiy munosabatlar tizimi boshqa ijtimoiy munosabatlar, masalan, ijtimoiy, siyosiy munosabatlar bilan qanday munosabatda bo'ladi? Iqtisodiyot nazariyasining asosiy maqsadi - cheklangan iqtisodiy resurslar sharoitida jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini qondirish muammosini hal qilish, davlat iqtisodiyotini samarali boshqarish uchun qoidalar va qonunlar.

Endi “Iqtisodiyot nazariyasi” haqida asosiy tushunchaga ega bo‘lgan holinda, Yangi O‘zbekistonning rivojlanish strategiyasi va bu yo‘nalishning undagi o‘rnini tushunishimiz kerak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 31 avgust kuni “Yangi O‘zbekiston” istirohat bog‘ida O‘zbekiston Mustaqilligining 31 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda nutq so‘zlab, “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi haqida butun mamlakatni xabardor qildi. Uning fikricha, “Yangi O‘zbekiston” ochiq va adolatli jamiyat, har bir fuqaroga g‘amxo‘rlik qiladi, u davlatdir: - O‘zbekiston Respublikasida har bir inson hayotini kelajakda yaxshilash uchun davlat xizmatlaridan foydalanish uchun ulkan imkoniyatlar yaratadi. — So‘z erkinligi bor joyda har bir inson o‘z muammosi haqida hech qanday cheklovlarsiz gapira oladi, shuningdek, bunday muammolarni birgalikda hal qilish yo‘llarini izlaydi. - Bu hamma uchun adolatni ta'minlaydi va fuqarolari kelib chiqishi, irqi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdir. – Tadbirkorlik va umuman iqtisodiyotning doimiy rivojlanishi uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Prezident Yangi O‘zbekiston haqida gapiradi: “Har bir fuqaroga qayg‘uradigan jamiyat” [8].

“Yangi O‘zbekiston” iqtisodiyoti rivojiga esa bu fanning har bir inson hayotidagi o‘rnini bosqichma-bosqich oshirib borsak, “Iqtisodiyot nazariyasi” ulkan hissa qo‘shishi mumkin. Negaki, iqtisodiyotni yaxshilash strategiyasini qurish yoki bu sohada islohotlarni amalga oshirish uchun mutaxassis bu borada katta tajribaga ega bo‘lishi kerak, lekin eng muhimi, ayniqsa, iqtisodda o‘z biznesining nazariy qismini bilishdir. Axir, shifokor bemorni operatsiya qilishga haqli emas, agar u hatto inson tanasining tuzilishi haqida asosiy tushunchaga ega bo'lmasa. “Iqtisodiyot nazariyasi”ning ahvoli taxminan bir xil va uning “Yangi O‘zbekiston” rivoji uchun ahamiyati ham shundan iborat. Bizning davrimizda iqtisodiy rivojlanishga nazariy yondashuvlar evolyutsiyasi ishlab chiqarish jarayonining asosiy omili sifatida ta'lim, shuningdek, bozorlarning turli turlarida - mintaqalararodan milliy bozorlargacha bo'lgan raqobatbardoshlik jarayonining asosiy omili sifatida qaraladigan bosqichga yetdi. Iqtisodiyot nazariyasi aynan shu element bo'lib, uning yordamida ko'plab mamlakatlar o'z milliy iqtisodiyotini rivojlantirishda o'zlarining afzalliklarini yaratdilar. Iqtisodiyot nazariyasining ta’limdagi o‘rni va ahamiyatini Yangi

O‘zbekiston iqtisodiyotini zaruriy mustahkamlash uchun berilgan narsa deb tushunish va qabul qilish kerak.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida: - oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish; - oliy ta’lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, mehnat bozorida o‘z o‘rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish [1] ko’zda tutilgan.

Shuningdek, O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash tizimining 2019-2025 yillarga mo’ljallangan Kontseptsiyasida, tibbiyot sohasiga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali hususiy sector rolini oshirish ko’zda tutilgan [2]. Ammo, bu xujjatlarda bolajak kadrlarimizdagi iqtisodiy bilimlarga bo’lgan “tashnalik” unutilgan ko’rinadi, chunonchi bu xaqida “huquqiy-me’yoriy” xujjatlarda xech qanday vazifa belgilanmagan. Go’yoki, jarayon iqtisodiy bilimlarsiz ro’y beradigandek !?

Vaholanki, ***iqtisodiyot nazariyasining g’oyaviy-tarbiyaviy vazifasiga*** kora – bu bo’lajak mutaxassislarning, keng omma, iqtisodiyot ilmini o’rganuvchilarning hozirgi zamon iqtisodiy tafakkurini, sh.j.bozorga bo’lgan dunyoqarashini o’zining tushunchalari orqali shakllantiradi. Bular quyidagi asosiy tushunchalar orqali: bozor, bozor iqtisodiyoti, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, korxona shakli, tadbirkorlik, biznes, kapital, resurslar, ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash(internet savdo), isrte’mol munosabatlari, tovar, pul va uning vazifalari, qiymat, tannarx, foyda, zarar, rentabellik, talab, taklif, baho, reklama, eksport, import, investitsiya, soliq, davlat byudjeti, mexnat bozori, iqtisodiy manfaatlar, ish xaqi, bandlik, ishsizlik, kambag’allik, bank, moliya, qimmatli qog’ozlar, kredit, aktsiya, valyuta, sug’urta, agrar munosabatlar va boshqalar.

Boz ustiga, iqtisodiyot nazariyasi fanining, ***milliy tarbiyaviy vazifasi*** - milliy istiqlol g’oyasini talaba yoshlar ongiga singdiradi, *ularni milliy manfaatlari yo’lida iqtisodiyotni rivojlantirish*, milliy mahsulotni ko’paytirish, milliy valyutamiz qadrini oshirish, milliy (brend) tovarlarni jahon miqyosidagi talabini ta’minlash, mamlakat aholisining turmush darajasini ko’tarish ruhida tarbiyalaydi.

Iqtisodiyot nazariyasi fani talaba yoshlarda ishlab chiqarilgan moddiy ne’matlar va ko’rsatilgan xizmatlarni inson mehnatining mahsuli ekanligini tushuntirib, ularni mehnat va cheklangan resurslarni tejash ruhida tarbiyalaydi.

Umumiy hulosa qilib aytganda, bu fan - har qanday xo’jalik faoliyatini tashkil etish va boshqarishni o'rgatuvchi iqtisodiy nazariyaning fundamental tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan fandir.

Xullas, ***Iqtisodiyot nazariyasi fani*** - *mustaqil hayotga qadam qo’yayotgan bo’lajak yosh kadrlarimizda, moliyaviy savodxonlik, tadbirkorlik ko’nikmalari sirlarini egallash orqali biznes tafakkurini shakllantiradi va yangidan-yangi tadbirkorlar, biznes boshqaruv vakillari etishib chiqishiga asosiy fundament bo’lib hizmat qiladi, albatta*.

Yuqoridagi fikrlarga ko’ra aytishimiz mumkinki, ***“Iqtisodiyot nazariyasi” fani Yangi O’zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining kalitidir.*** Bu fan har bir mamlakat iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi uchun bozor munosabatlari qonuniyatlarini tushunishda eng muhim vosita hisoblanadi. “Iqtisodiyot nazariyasi” – muayyan iqtisodiy hodisalarning sabablarini aniq ko‘rsatib beradi, bu esa o‘z navbatida mamlakatni iqtisodiy inqirozdan himoya qiladi va har qanday davlat, bizning misolimizda – O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning yuqori samarali strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi.

Aytib o’tganimizdek, mamlakatimizda hozirgi vaqtdagi milliy kadrlar tayyorlashning sistemasida noiqtisodiy oliy o’quv yurtlarining o’quv dasturlari iqtisodiyot nazariyasi fanini o’qitishni chetlab o’tgan. Vaholanki, bozor munosabatlarining elementlari, iqtisodiy kategoriyalar va qonunlarning asl mohiyatini iqtisodiyot nazariyasi fani orqali bilmay turib, xozirgi ta’limning maqsadlariga erishish samarasiz urinishdir, deb hisoblaymiz. Qolaversa, oliy ta’lim muassasalari o’rtasida shakllanib borayotgan raqobat kurashini oz vaqtida anglagan tarzda, bu muammolarni tez orada hal qilishga jiddiy yondoshish masalasini ta’lim subektlari bilishlari lozim. Vaqt ko’rsatmoqdaki: “Bozor kon’yukturasi va raqobat har qanday korxona darajasida ishchi kuchining sifati haqida g’amxo’rlik qilishga majbur qiladi” [9].

Shunday qilib, mamlakatimizdagi bozor iqtisodiyotining “o‘zbek modeli” qurilishi davrida, aynan xozirgi “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish pallasida, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadiga ko’ra, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va iqtisodiy o’sish barqarorligini ta’minlashda iqtisodiyot nazariyasi fani rolini oshirishning zaruriyati yaqqol ko’rinib turibdi.

Xulosa: Bu fikrlarning barchasiga asoslanib aytish lozimki, bugungi iqtisodiyotdagi bozor munosabatlarining talabi, “Iqtisodiyot nazariyasi” fanini mamlakatimizning noiqtisodiy oliy o‘quv yurtlarida, barcha mutaxassisliklar tayyorlash bo’yicha oqitilishini taqozo etadi.

Taklifimiz: Yangi O’zbekistonda bozor iqtisodiyoti uchun bo’lajak “zamonaviy kadrlar” darajasini hisobga olib, ularni tayyorlashda, oliy ta’lim sistemasi mutaxassislar tayyorlashning barcha yo’nalishlari bo’yicha o’quv rejasigagi majburiy o’qitish fanlari sifatida belgilangan Falsafa, O’zbekiston eng yangi tarixi, Dinshunoslik

fanlari qatoriga Iqtisodiyot nazariyasi fanini xam majburiy o’qitish fani sifatida kiritilishini zarur deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi // Lex.uz>docs/-4545884
2. O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash tizimini 2019-2025 yillarga mo’ljallangan Kontseptsiyasi / OzR Prezidentining 2018 yil, 7 dekabr, №PQ-5590 qarori Ilovasi / (www.lex.uz), 7 декабр 2018 y.
3. Sh.Shodmonov, M.Raxmatov. Iqtisodiyot nazariyasi: darslik. – T.: “Zamin nashr”, 2021. 34 b.
4. Ludwig von Mises. *Human Action: A Treatise on Economics.(*Людвиг-фон-Мизес.-Человеческая-деятельность.pdf (baguzin.ru)
5. Значение экономических знаний для медицинских работников. Источник: https://domopravda.ru/znacenie-ekonomiceskix-znanii-dlya-medicinskix-rabotnikov
6. Драчук П.Э. Роль экономических знаний в социализации будущих врачей. ФГБОУВО ЮУГМУМинздрава России, Челябинск, Россия e-mail: ehvd@yandex.ru
7. Пулатов О.Т., Курпаяниди К.И. Экономическая теория: ключевые аспекты в современном мире и их влияние на устойчивость рынков нового узбекистана // Ilm-fan taraqqiyotida mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirish Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Farg‘ona: FDU, 2024. 641- 645 b.
8. Prezident Yangi O‘zbekiston haqida gapiradi//Elektron resurs: URL: https://www.gazeta.uz/ru/2022/08/31/new uzbekistan/
9. Қутибоев Т. Ишчи кучи сифати инсон капиталининг асосий элементи сифатида// “Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog’lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman (2023 yil, 4 mart) ilmiy maqolalar va tezislar to’plami. – Andijon.: AndMI, 2023. – 694-696 b.

TARIXIY ADOLATNI TIKLASH VA ICHKI MEHNAT MIGRATSIYASI XUDUDLARINI IJTIMOIY –IQTISODIY RIVOJLANTIRISHNING MUHIM OMILI

Ro‘zmatzoda Qodirqul Ruzmat o‘g‘li,
falsafa fanlari doktori,